

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi

Markaziy qay‘at raisi

L.X. Musadjanova

2025 y.



«TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi direktori

L.X. Musadjanova

«12» dekabr 2025y.



Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

Davolash ishi

(sikli bo‘yicha ixtisoslashtirish guruhlar uchun)

O‘QUV DASTURI

(288kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVCHILAR:

L.X.Musadjanova

Respublika o'рта tibbiyot va farmatsevtika
xodimlari malakasni oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi
direktori, t.f.d. professor.

D.T.Abdullayeva

Respublika o'рта tibbiyot va farmatsevtika
xodimlari malakasni oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

N.S.G'aniyeva

Respublika o'рта tibbiyot va farmatsevtika
xodimlari malakasni oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

TAQRIZCHILAR:

I.N.Aslonov

Respublika tez tibbiy yordam markazi
Toshkent shahar filiali direktori, t.f.n. dotsent

R.U.Musayev

Respublika o'рта tibbiyot va farmatsevtika
xodimlari malakasni oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

O'quv dasturi Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12 2025 .y.

bayonnoma № 6

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi,
tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12 2025 .y.

bayonnoma № 5

1. Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida o‘rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. ”O‘zbekistonda ilg‘or tibbiy texnologiyalarni boshqarish” Loyihasi doirasida Germaniya xalqaro hamkorlik (GIZ)jamiyati vakolatxonasi bilan hamkorlik doirasida, JSST va YUNISEF tomonidan tavsiya etilgan BTSYO muassasalarida onalar va bolalarga universal-progressiv modeli bo‘yicha xizmat ko‘rsatish yo‘riqnomalaridan foydalanilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. Modul asosida tuzilgan dasturda o‘quv fanning mazmuni uni o‘zlashtirish shakli va usullari bilan birlashgan. “Davolash ishi” o‘quv dasturi o‘quv rejasiga muvofiq tuzilgan bo‘lib, 288soat (2 oy) 3 yildan 7 yilgacha mehnat stajida uzilish bo‘lgan o‘rta tibbiyot xodimlari (feldsherlar)ni ixtisoslashtirish uchun yaratilgan.

Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo‘lib: kasbiy rivojlanish modulida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish haqida” 255-sonli buyrug‘i ijrosini bajarish maqsadida “Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish”moduli kiritildi. Kasbiy rivojlantirish modulida ma‘naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilib, tibbiy talimning uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad: Davolash ishi yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan o‘rta tibbiyot xodimlarini - inson salomatligini saqlash, kasalliklarni oldini olish, aniqlash va davolash bo‘yicha zarur nazariy bilimlar hamda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, dastur orqali o'rtta tibbiyot xodimlarini tibbiy muassasalarda ishlay oladigan, bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish, diagnostika va davolash jarayonlarini amalga oshirish bo'yicha malakali mutaxassis sifatida tayyorlash ko'zda tutiladi.

1.2. Vazifalar:

- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- aholi o'rtasida salomatlik ko'rsatkichlarini yanada oshirishi;
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar, va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini yangilash;
- inson organizmining anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi bo'yicha asosiy bilimlarni berish.
- turli kasalliklarning kelib chiqish sabablari, belgilari va kechish xususiyatlarini o'rgatish.
- kasalliklarni tashxislash usullari va laboratoriya tekshiruvlari haqida bilim berish.
- davolash usullari va tibbiy muolajalarni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish.
- bemorlarni parvarish qilish va rehabilitatsiya jarayonlarini tashkil qilishni o'rgatish.
- tez tibbiy yordam ko'rsatish va favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.
- tibbiy etika va deontologiya qoidalariga rioya qilishni shakllantirish.
- nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti): O'quv dasturi Respublika tez tibbiy yordam markazlarida va shoshilinch tez tibbiy yordam muassasalarida faoliyat olib borishni rejalashtirgan o'rtta tibbiyot xodimlari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan, lekin mehnat stajida 3 yildan 7 yilgacha uzilish bo'lgan "Davolash ishi" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashtirishni rejalashtirgan o'rtta tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- Tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay olishi;
- amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash, soha bo'yicha zamonaviy yutuqlardan xabardor bo'lib, uni amalda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'rtta tibbiyot xodimlarining huquqiy meyorlarini, bemor huquqlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- feldsherlarni lavozimlik burchlarini bilishi;
- tashqi muhit omillarining inson sog'ligiga ta'siri, ekologik muvozanat buzilishining atmosfera havosiga ta'siri, havoni ifloslantiruvchi manbalar haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- turli yoshdagi insonlarning a'zo va tizimlarining anatomik-fiziologik xususiyatlarini bilishi;

- anamnez ma'lumotlarini yig'ishning asosiy usul va tamoyillarini bilishi;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda va baxtsiz hodisalarda shoshilinch, tez yordam ko'rsatishda o'z vaqtida tashhishlash ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bilim va ko'nikmalariiga ega bo'lishi;
- mutaxassisligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, ixtisoslikdan o'tishga tayyor bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, etika va deontologiya asoslarni bilish va rioya qilish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

“Davolash ishi” dasturi zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, aholiga sifatli va xavfsiz tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Dasturining dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: Aholi salomatligini saqlash va kasalliklarni kamaytirish zarurati, tibbiy xizmat sifatiga bo'lgan talabning ortishi, turli infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklarning keng tarqalishi, tibbiyot sohasida zamonaviy diagnostika va davolash usullarining rivojlanishi sababli tibbiy muassasalarda ishlay oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash, aholiga sifatli tibbiy yordam ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega. Amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar diagnostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo'llash, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 288 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi o'qish
- on/offline, masofaviy / a'nanaviy o'qish

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi” O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi № 160 buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan xujjat: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Davolash ishi” bo'yicha 288 kredit ixtisoslashtirish o'tganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:

Umumkasbiy kompetensiyalar

- Inson organizmining anatomiyasi, fiziologiyasi va patologiyasi asoslarini bilish.
- kasalliklarning kelib chiqish sabablari, belgilari va rivojlanish bosqichlarini tushunish.
- tibbiy yordam ko'rsatishda tibbiy etika va deontologiya qoidalariga amal qilish.

- bemorlar bilan samarali muloqot qilish va tibbiy ma'lumotlarni tushuntirish.
 - hamkasblar, o'rta va kichik tibbiy xodimlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
 - kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;
 - yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish uchun ish joyini talab darajasida ta'minlash va o'rnatilgan tartibda tibbiy hujjatlarni yurita olish;
 - sog'liqni saqlash tizimidagi yangiliklar, tibbiyot sohasidagi meyoriy hujjatlar va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ladi;
 - tibbiy muassasalarda ish jarayonini to'g'ri tashkil qilish;
 - tibbiy hujjatlarni to'g'ri yuritish;
- Diagnostik kompetensiyalar*
- bemorning shikoyatlari va kasallik tarixi (anamnez) ni to'g'ri yig'ish;
 - bemorni klinik tekshirish usullarini (ko'rik, palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya) qo'llash;
 - laboratoriya va instrumental tekshiruv natijalarini tahlil qilish;
 - kasalliklarga dastlabki tashxis qo'yish;
 - zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish va ishlatishni tashkil etish vazifalari takomillashadi;
- Davolash kompetensiyalari*
- asosiy kasalliklar bo'yicha davolash choralarini tashkil qilish.
dori vositalarini to'g'ri qo'llash va dozalash.
tibbiy muolajalarni bajarish (inyeksiya, infuziya, bog'lash va boshqalar).
bemorlarni kuzatish va davolash samaradorligini baholash.
- kasalliklar asoratlarini oldini olish, insonlarni salomatligini saqlash hamda, uni tiklashda ko'nikmalarga ega bo'ladi;
- Tez tibbiy yordam kompetensiyalari*
- favqulodda holatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.
 - shok, qon ketish, yurak-qon tomir va nafas yetishmovchiligida tezkor yordam ko'rsatish.
 - kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
 - reanimatsiya asoslarini bilish va amalga oshirish.
- Profilaktik kompetensiyalar*
- kasalliklarni oldini olish choralarini tashkil qilish;
 - sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.
 - aholi o'rtasida sanitariya-ma'rifiy ishlar olib borish.

3. DASTUR MAZMUNI.

3.1”Davolash ishi “ixtisoslashtirish kursi 288 kredit o‘quv dasturi rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	48	30	18		
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar .	6	2	4		
1.3	Modul:Xorijiy til.	6	2	4		
1.4	Modul:Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me‘yoriy hujjatlar.	6	6	-		
1.5	Modul: Infekcion nazorat	6	4	2		
1.6	Modul:Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.	6	2	4		
1.7	Modul: Shaxslar o‘rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2		
1.8	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	6	4	2		
2.0	Mutaxassislik fanlar modullari	234	78	156		
2.1	Modul: Hamshiralik ishi asoslari va tibbiy muolajalar algoritmi	12	4	8		
2.2	Modul:Terapiyada shoshilinch yordam ko‘rsatish va parvarishlash.	36	12	24		
2.3	Modul: Xirurgiyada shoshilinch yordam ko‘rsatish va parvarishlash.	36	12	24		
2.4	Modul:Akusherlik va ginekologik yordam ko‘rsatish.	24	8	16		
2.5	Modul:Pediatriyada shoshilinch yordam ko‘rsatish	36	12	24		
2.6	Modul:Yuqumli kasalliklarda yordam ko‘rsatish.	24	8	16		
2.7	Modul: Aholiga patronaj xizmatini ko‘rsatish.	42	14	28		

2.8	Modul:Favqulodda holatlarda aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish.	24	8	16		
3.0	Attestatsiya	6				6
	Jami:	288	108	174		6

”Davolash ishi “ixtisoslashtirish kursi 288 kredit o‘quv dasturi modullar mazmuni.

1.1.Modul. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim.Islohotlar markazida “Inson qadri uchun”degan ezgu tamoyil ustuvor.Yurtimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.“Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda sog‘liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo‘nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas’uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma’lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

1.2.Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar. Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. "Tibbiyot informatikasi asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;

hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

1.3. Modul. Xorijiy til. Ingliz tilini o'qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o'rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo'llaniladigan terminlar. The verb "to be", "to have" Introducing yourself. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish

1.4. Modul. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar. Sog'liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog'liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo'nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to'liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog'liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

1.5. Modul. Infekcion nazorat. Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va me'yorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot.

Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

1.6. Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.7. Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqot va tibbiy maslahat Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorga diqqat e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an'alarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e'tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko'nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarning o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O'zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari

1.8.Modul:Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik. Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari.Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta’siri, to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta’siri, tibbiy ko‘riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1.Modul: Hamshiralik ishi asoslari va tibbiy muolajalar algoritmi Hamshiralik ishi fani maqsad va vazifalari. Hamshiralik amaliyoti asoslari. Bemorlar parvarishi, hayotiy ko‘rsatkichlarni aniqlash va baholash. Qo‘lni standart gigiyenik, xirurgik va antiseptik vositalar yordamida zararsizlantirish usullari. Steril qo‘lqoplarni kiyish va yechish algoritmi. Tibbiy muolajalar algoritmi. Dori vositalarini ahamiyati, nojo‘ya ta’sirlari.Dori vositalarni eritish. Antibiotiklarga sinama qo‘yish. Teriostiga, teriorasiga, muskul orasiga, vena ichiga ineksiyalar qilish algoritmi. Dori vositalarini saqlash,tarqatish va qo‘llash. Bemorlarni klinik laborator va instrumental tekshiruvlarga tayyorlash.Vakuum tizimga qon olish. Sistemani infuziyaga tayyorlash va mavjud katetrga ulash algoritmi. Bog‘lov materiallari turlari,o‘lchamlari va ularni tayyorlash. Tibbiy tahlillar uchun biomateriallar yig‘ish.

2.2. Modul: Terapiyada shoshilinch yordam ko‘rsatish.

Nafas olish a‘zolari tizimi anatomo-fiziologik xususiyatlari. Bronxit, bronxial astma kasalliklarni kelib chiqish sabablari. Kasalliklarning tasnifi, zamonaviy tekshirish, davolash va parvarishlash usullari. Pnevmoniya, plevrit, o‘pka sili. Kasalliklarni kelib chiqish sabablari.Kasalliklarni aniqlashda zamonaviy tibbiy asboblarni yordamida tekshirish usullari. O‘pkaning tiriklik sig‘imini aniqlash, pikfloumetriya usulini o‘tkazish. Nafas olish a‘zolari kasalliklarini profilaktikasi. Nafas olish a‘zolari kasalliklarda ularni erta bartaraf etish chora tadbirlari. Yuqori va pastki nafas olish a‘zolari tizimining kasalliklarida rehabilitatsiya va davolovchi jismoniy tarbiya chora-tadbirlari. Yurak-qon tomir a‘zolari tizimi anatomo-fiziologik xususiyatlari. Ateroskleroz sabablari belgilari, asoratlari. Arterial gipertenziya, kelib chiqish sabablari, kasallik rivojlanishini oldini olish. Yurak qon – tomir tizimi kasalliklarini zamonaviy tekshirish usullari.

Gipertonik kriz, belgilari, bemorlarga shiforkorgacha tez tibbiy yordam ko‘rsatish. Yurak ishemik kasalliklari, sabablari, turlari. Stenokardiya klinikasi,turlari. Stenokardiya hurujida shoshilinch yordam ko‘rsatish. Miokard infarkti,turlari,klinik belgilari. Miokard infarkti hurujida bemorlarga shiforkorgacha tez tibbiy yordam ko‘rsatish. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari asoratlarini oldini olish chora-tadbirlari. Ovqat hazm qilish a‘zolari tizimi anatomo-fiziologik xususiyatlari. Nutritsiologiya haqida tushuncha. O‘tkir va surunkali gastritlar. Kasalliklarni zamonaviy tekshirish, davolash usullari. Me‘da - yara kasalliklari, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, asoratlari va ularda tez tibbiy yordam berish. Ichak kasalliklari. O‘tkir va surunkali enteritlar va kolitlar. Ularning kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari. O‘tkir va surunkali jigar kasalliklari. O‘tkir gepatit, uning

kelib chiqishi belgilari, davolash va oldini olish. Surunkali gepatit va jigar sirrozi, kelib chiqishi, rivojlanishi va belgilari, zamonaviy tekshirish va davolash usullari. O't qopi, o't yo'llari va oshqozon osti bezi kasalliklari. O'tkir va surunkali xoletsistitlar, o't-tosh kasalligi hamda pankreatitlar. Ularning kelib chiqishi, rivojlanishi va belgilari. Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklarida rehabilitatsiya. Siydik ajratish a'zolari tizimi anatomo-fiziologik xususiyatlari. O'tkir va surunkali glomerulonefrit, sabablari va belgilari. O'tkir va surunkali piyelonefritlar kelib chiqishi, belgilari, bemorni kun tartibi, parhez taomlari. Buyrak tosh kasalligi kelib chiqishi, belgilari. Buyrak sanchig'i xurujida kechiktirib bo'lmaydigan tez tibbiy yordam. Buyrak va siydik yo'llari kasalliklarida salbiy asoratlari va ularni belgilari, asoratlarni oldini olish. Buyrak va siydik yo'llari kasalliklarni zamonaviy davolash tadbirlari. Ichki sekretiya bezlari kasalliklari. Qalqonsimon bez faoliyati va uning gormonlari fiziologiyasi haqida ma'lumot. Tireotoksikoz kasalligi sabablari va bemor muammolari. Gipotireozning sabablari va bemor muammolari. Endemik buqoqning sabablari va bemor muammolari. Qandli diabet kasalligi kelib chiqish sabablari, belgilari, asoratlari va ularni oldini olish. Insulinoterapiya. Gipoglikemik va giperqlikemik koma hollarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam. Gematologik va biriktiruvchi to'qima kasalliklari. Anemiya, turlari, kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari. Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklarda bemorlarga tavsiyalar berish. Revmatizm va biriktiruvchi to'qima kasalliklarini turlari, kelib chiqish sabablari, bemor muammolarini aniqlash va davolash.

2.3. Modul: Xirurgiyada shoshilinch yordam ko'rsatish.

Xirurgiya fanining rivojlanish tarixi. O'zbekiston Respublikasida xirurgik yordamni tashkil qilish. Aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatishda jarrohlikning asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining amaldagi buyruqlari asosida ish yuritish. Aseptika. Sterilizatsiyaning zamonaviy usullari. Xirurgik asbob-uskunalar, turlari, sterilizatsiyasi va saqlanishi. Bog'lov materiallari, ularning asosiy xususiyatlari. Bog'lov materiallarini tayyorlash, bikslarga joylash usullari, sterillikni nazorat qilishning zamonaviy usullari. Steril kiyim kiyish tartibi. Steril qo'lqop kiyish tartibi. Steril stolni tayyorlash. Tibbiyot xodimining gigiyenasi. Antiseptika. Antiseptika usullari. Asosiy antiseptik dori vositalari. Antiseptik moddalarning ta'siri va qo'llanilishi. Operatsiyadan oldingi davr. Operatsiyadan oldingi davrda bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari. Bemorlarni rejali va shoshilinch operatsiyalarga tayyorlash, bolalar va keksalarni operatsiyaga tayyorlash xususiyatlari. Og'riqsizlantirish haqida tushuncha. Narkoz turlari va bosqichlari. Asosiy narkotik preparatlar va ularning xossalari. Umumiy va mahalliy og'riqsizlantirishda yordam ko'rsatish. Operatsiyadan keyingi davr. Bemorlarni operatsiya xonasidan transportirovka qilish. Operatsiyadan keyingi davrda kuzatiladigan asoratlarda yordam ko'rsatish.

Desmurgiya haqida tushuncha. Bog'lamlar turlari. Bog'lamlar qo'yish qoidalari. Turli hil bog'lov materiallari va ularni mahkamlash usullari (yelimli, leykoplasterli, elastik bintlar qo'llash). Tananing turli sohalariga bintli bog'lamlarni bog'lash. Qattiq bog'lamlarni qo'yish qoidalari. Gips sifatini aniqlash, gipsli bint, gipsli longetalar tayyorlash va ularni yechish.

Qon ketish sabablari, turlari, belgilari, darajalari. Qon ketishini vaqtinchalik va uzil-kesil to'xtatish usullari. Zamonaviy gemostatik vositalar. Qon ketish asoratlari va ularda birinchi yordam ko'rsatish. Infuziya va transfuziya. Qon quyishga ko'rsatma va mone'liklar. Qon guruhi, rezus faktor, qon quyish uchun individual va biologik mosliklarni aniqlash. Qon quyish usullari. Qon preparatlari va qon o'rnini bosuvchi zamonaviy suyuqliklar, ularni quyishda uchraydigan asoratlar va ularda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Tibbiyot hodimlarini OIV/OITSdan himoyalanihi. Shikastlar haqida tushuncha. Shikastlar tasnifi. Yumshoq to'qima shikastlari. Suyaklar sinishi va chiqishi. Bosh-miya, ko'krak qafasi, umurtqa pog'onasi va chanoq suyaklari shikastlarining mahalliy belgilari. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish xususiyatlari. Transport immobilizatsiyasi. Jarohatlar haqida tushuncha, turlari, belgilari, davosi, bitishi. Qoqshol, gazli gangrena, quturish kasalliklarini oldini olish va yordam ko'rsatish. Kuyish. Sovuq olish. Elektrotravma. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, transportirovka qilish, davolashning zamonaviy usullari. Xirurgik infeksiya tushunchasi, tasnifi, tarqalish yo'llari, yallig'lanishning asosiy mahalliy belgilari. Bemorlarni tekshirish, davolash. Jarrohlik bo'limlarida shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi bo'yicha tadbirlar. Bo'limdagi sanitariya-gigiyena tartibi. Bog'lash xonalarida shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. "O'tkir qorin"sindromi tushunchasi, sabablari, klinik belgilari, bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Operatsiyadan keyingi erta va kechki asoratlarni oldini olish. Qorin bo'shlig'i a'zolarining ochiq va yopiq shikastlari, klinik belgilari, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Qorin bo'shlig'i a'zolarining o'tkir yallig'lanish kasalliklari sabablari, klinik belgilari, tekshirish va davolashning zamonaviy usullari. Bemorni shoshilinch operatsiyaga tayyorlash. O'tkir ichak tutilishi. Me'da va 12-barmoq ichak yarasining asoratlari. To'g'ri ichak kasalliklarining klinik belgilari, tekshirish usullari, bemorlarni operatsiyaga tayyorlash. "O'tkir qorin"sindromi bilan kasallangan bemorlarni parvarish qilish va ovqatlantirish xususiyatlari. Urologik kasalliklarning etiologiyasi, klinik belgilari, bemorlarga shoshilinch yordam ko'rsatish. Qovuq va siydik chiqarish kanalining tug'ma nuqsonlari. Buyraklarning ochiq va yopiq shikastlari. Buyrak o'smalari. Qovuq va prostata bezi kasalliklari. Buyrak-tosh kasalligi. O'tkir siydik tutilishining sabablari, klinik belgilari, birinchi tibbiy yordam. O'smalar. Havfli va havfsiz o'smalar haqida tushuncha. Og'riq sindromida yordam ko'rsatish.

Ko'z soqqasining mexanik jarohatlari, kimyoviy, termik, elektr ta'siridan kuyishida shoshilinch yordam ko'rsatish. Quloq, tomoq va burun a'zolari kasalliklarining kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, rivojlanishi. Burun va yondosh bo'shliqlari kasalliklarini tekshirish va davolash usullari. Burun-halqum, og'iz-halqum, halqum-hiqildoq kasalliklari sabablari, klinik belgilari, tekshirish usullari. Zamonaviy dori vositalarini qo'llash. Tashqi, o'rta va ichki quloq kasalliklari haqida tushuncha, tekshirish usullarida ishlatiladigan zamonaviy asbob-uskunalar. Halqum va xiqildoq kasalliklarini tekshirishning zamonaviy usullari, bemorlarni davolash.

2.4. Modul: Akusherlik va ginekologik yordam ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasida akusherlik xizmatini rivojlanishi. Perinatal markazlar, tug'ruq komplekslari, oilaviy poliklinika (OSHP) ish faoliyati va yuritiladigan hujjatlari. Reproktiv tizim faoliyati va xususiyatlari. Hayz sikli fiziologiyasi va uni boshqarilishi. Reproktiv salomatlik konsepsiyasi. Reproktiv salomatlik va bexatar onalik tamoyillari. Homiladorlik, homiladorlikni I, II, III trimestrda ayol organizmidagi o'zgarishlar. Homiladorlikni erta aniqlashni zamonaviy usullari. Homiladorlikni taxminiy va ishonchli belgilari. Homiladorlik muddati va taxminiy tug'ruq muddatini aniqlash. Homila taxminiy vaznini aniqlash. Homilador ayolda xavf omillarini aniqlash. Homiladorlar ovqatlanishi va gigiyenasi. Tug'ruq, tug'ruqni boshlanish sabablari, davrlari, klinikasi. Fiziologik tug'ruqni boshqarish. Tug'ruqni I, II, III davrlarida tug'uvchi ayolga yordam ko'rsatish. parvarishi. Issiqliq zanjiri qoidalari. Apgar shkalasi. Chaqaloqni Apgar shkalasi bo'yicha baholash. Tug'ruqda yo'qotilgan qon miqdorini aniqlash. Ilk chilla davrida qon ketish sabablari va shoshilinch yordam ko'rsatish. Chilla davridagi psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar. Chilla davri septik kasalliklari. Ginekologik bemorlarni tekshirish usullari. Ayollar jinsiy a'zolarini yallig'lanish kasalliklari haqida ma'lumot. Ayollar jinsiy a'zolari yallig'lanish kasalliklarining klassifikatsiyasi, sabablari, tekshirish usullari. "O'tkir qorin sindromi" da shifokorgacha yordam ko'rsatish. Hayz siklini buzilishlari va ayol jinsiy a'zolarining o'sma kasalliklari haqida tushuncha. Ayollarga va o'smir qizlarga dastlabki ginekologik yordam ko'rsatish.

2.5. Modul: Pediatriyada yordam ko'rsatish. Sog'liqni saqlash tizimining amaldagi me'yoriy hujjatlari. Bolaning o'sishi, jismoniy, psixomotor rivojlanishi monitoringi. Bolalar organizmining yoshiga nisbatan o'zgarishi xususiyatlari. Muddatida va muddatdan oldin tug'ilgan chaqaloqlarning anatomo-fiziologik xususiyatlari. Muddatida va muddatdan oldin tug'ilgan chaqaloqlarning belgilari, ularning moslashishi, ulardagi fiziologik holatlarda parvarishlash. 6 oygacha bo'lgan bolalarni istisnosiz ko'krak suti bilan emizish. 6 oydan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni qo'shimcha ovqatlantirish. Nutritsiologiyani bolalar salomatligiga ta'siri. Go'dak va kichik yoshdagi bolalar kasalliklari va nafas a'zolari tizimi kasalliklarida shoshilinch yordam ko'rsatish. Bolalarda yurak-qon tomir a'zolari tizimi kasalliklari va ularda shoshilinch yordam ko'rsatish. Bolalarda ovqat hazm qilish a'zolari tizimi, qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari va ularda shoshilinch yordam ko'rsatish. Endokrin tizimi a'zolari, buyrak va siydik chiqarish a'zolari kasalliklari va ularda yordam ko'rsatish. Qandli diabet etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davosi va yordam ko'rsatish. Bolalar yurak tug'ma nuqsonlari va irsiy kasalliklarda shoshilinch yordam ko'rsatish. Tug'ma nuqsonlarga va irsiy kasalliklarga olib keladigan omillarni o'rganish, erta aniqlash.

2.6. Modul: Yuqumli kasalliklarda yordam ko'rsatish.

Yuqumli kasalliklar to'g'risida umumiy ma'lumot. Yuqumli kasalliklarning asosiy xususiyatlari. Yuqumli kasalliklar tasnifi. Hayot anamnezi, kasallik anamnezi. Epidemiologik anamnez. Bakteriologik, virusologik, serologik, biologik laborator tekshiruvlar. Laborator tekshiruvlarga material yig'ish. Yuqumli kasalliklar bilan

og'rikan bemorlarga yordam ko'rsatish xususiyatlari. Yuqumli kasalliklar shifoxonasi va bo'limlarining tuzilishi va ish tartibi. Bemorlarni qabul qilish. Zaruriy hujjatlarni rasmiylashtirish. Bemorlarni kasalligi bo'yicha joylashtirish tartibi. Bokslarning tuzilishi. Bemorlarni bokslarga joylashtirish, bokslarga tashrif buyurish tartibi. Shifoxona ichida tarqaluvchi yuqumli kasalliklarga qarshi kurash tadbirlari. Bemorlarni shifoxonadan chiqarish tartibi. Ichak infeksiyalarida bemorlarga yordam ko'rsatish. Ichak yuqumli kasalliklari: dizenteriya, botulizm, salmonellyoz, qorin tifi, A va B paratiflar, virusli gepatit A va E kasalliklari etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik ko'rinishlari, tashxisoti, bemorlarga yordam ko'rsatish va kasalliklarning oldini olish choralari. Qorin tifida uzoq isitmalayotgan bemorlarga yordam berish. Gripp, paragripp, meningokokkli infeksiya, ko'kyo'tal kasalliklari etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik ko'rinishlari, tashhisoti, bemorlarga yordam ko'rsatish, kasalliklarning umumiy va maxsus profilaktikasi. Nafas yo'llari yuqumli kasalliklari va meningokokkli infeksiyada bemorga yordam ko'rsatish. Qon infeksiyalari: virusli gepatitlar B, C, D, OIV/OITS infeksiyalari etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik ko'rinishlari, tashxisoti, bemorlarga yordam ko'rsatish va kasalliklarning oldini olish choralari. Karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklarda bemorlarga yordam ko'rsatish. Karantin infeksiyalar: o'lat, vabo, sariq isitma, etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi, davosi va kasalliklarning oldini olish chora tadbirlari. O'ta xavfli infeksiyalar: gemorragik isitmalar, kuydirgi, quturish kasalliklarida bemorlarga yordam ko'rsatish. Kasalliklarning etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi, davosi va kasalliklarning oldini olish chora tadbirlari. O'ta xavfli infeksiyalardan himoyalaniish tamoyillari.

2.7. Modul: Aholiga patronaj xizmatini ko'rsatish.

Sog'liqni Saqlash Vazirligining amaldagi buyruqlarining mazmun mohiyati. Aholining muayyan kasalliklari bo'yicha davriy skrining tekshiruvlari, takomillashtirilgan tibbiy profilaktika va patronaj xizmati, maqsadli patronaj tizimini olib borish. Aholiga profilaktik va chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklarni tashkil etish. Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarida tibbiyot brigadalarini tashkil etish va ularning vazifalari. Patronaj xizmatining universal-progressiv modeli. Aholini tibbiy xatlovdan o'tkazish, salomatlik guruhlariga bo'lish va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish. BTTYO muassasalarida onalar va bolalarga universal-progressiv modeli bo'yicha xizmat ko'rsatish. Patronaj hamshiraning kundalik bajaradigan ishlarini tuzish va tashriflarini rejalashtirish. Xonadonga tashrif vaqtida birlamchi baholashni o'tkazish. Eko kartani tuzish. Patronaj xizmatlarining universal modeli bo'yicha tashriflarni rejalashtirish va uyushtirish hisobot shakllari. Oilani individual olib borish bo'yicha hamshiralik jarayoni varaqasini to'ldirish. Bexatar onalik. Reproduktiv salomatlik va uni muhofaza qilishdagi tamoyillar. Homilador ayollar patronaji. Qo'shimcha parvarishga muhtoj ayollar guruhi. Homiladorlikdagi xavfli belgilar. Homiladorlik vaqtida zudlik bilan tibbiy yordamni talab etuvchi belgilar. Homilador ayolda homiladorlikdagi fiziologik o'zgarishlar. Homiladorlik depressiyasi. Chilla davridagi ayol va chilladagi chakqaloqning hayotiga xavf soluvchi belgilarni

aniqlash. Tug‘ruqdan keyingi ayollar patronaji. Tug‘ruqdan keyingi davrda zudlik bilan tibbiy yordamni talab etuvchi belgilar. Kasallikning bola hayotiga xavf soluvchi belgilari. 0-2 oygacha bo‘lgan go‘daklarda uchraydigan muammolar. Quloq og‘rig‘ida yordam ko‘rsatish. Diareyada yordam ko‘rsatish. Ko‘krak suti bilan boqish. Ko‘krak suti bilan boqishning afzalliklari. Bolani ko‘krakka to‘g‘ri tutish qoidalari. Noto‘g‘ri emizish belgilari va oqibatlari. 6 oygacha bo‘lgan bolalarni istisnosiz ko‘krak suti bilan emizishning muammolarini aniqlash. Qo‘shimcha ovqatlantirish va qo‘shimcha ovqat berish muddatlari. 6 oylikdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarga tavsiya qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari. “A” vitamini yetishmovchiligi. Tana vazni va bo‘yni o‘lchash. Vazn-bo‘y indiksini (VBI) aniqlash. Bosh aylanasi o‘lchash. Bola hayotining dastlabki uch yilligida miya rivojlanishi. Uy muhitidagi jarohatlar va ularning turlari. Jarohatlanishning oldini olish, yordam ko‘rsatish. Bolalardagi to‘satdan o‘lim sindromi. Stigma va diskriminatsiyani bartaraf qilish. Steriotiplar, soxta tushunchalar va diskriminatsiya. Emlashning (vaksinatsiyaning) ahamiyati. Profilaktik emlashni tashkillashtirish va olib borish. Emlashning muhimligini anglash uchun ota-onalarga asosiy tavsiyalar. Emlashdan so‘ng yuzaga keladigan nojo‘ya ta’sirlar. Emlashdan keyingi holatini baholash va nazorat qilish. Tug‘ish yoshdagi ayollarni tibbiy ko‘rikka chaqirish. Zamonaviy kontratseptiv vositalardan foydalanish bo‘yicha maslahat olib borish. Yuqumli kasalliklar o‘chog‘ida mikroblar tarqalishi profilaktikasi. Kasallik tarqalishini oldini olish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish. Qo‘l yuvish qoidalari. Hayotiy muhim ko‘rsatkichlarni baholash. Yotoq yaralarni oldini olish va parvarish qilish. Palliativ yordam. Shifokor tasviyasiga ko‘ra muolajalarni bajarish. Noinfekcion kasalliklar va ularni turlari. Aholi orasida noinfekcion kasalliklarni oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berish.

2.8. Modul: Favqulotda holatlarda aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatish.

O‘zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chiqarilgan mutaxassislikka oid buyruqlar. Tez yordam markazning maqsad va vazifasi haqida tushuncha. Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya Qon ketishni to‘xtatish usullari. Yengil va og‘ir kuyishlarda tibbiy yordam ko‘rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma’lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko‘rsatish. Shok holatlarida yordam ko‘rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko‘rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o‘lim belgilari. CPR – yurak-o‘pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun‘iy nafas berishni o‘tkazish algoritmi. Gipertermiyada, nafas yo‘llariga yot jism tushganda (nafas qiyinlashuvi) nafas yetishmovchiligi kelib chiqish sabablari. Birinchi yordam yot jismni olishda Geymlix usulini qo‘llash. Cho‘kish, kuyish, issiqlik va sovuq urishida klinik belgilari va shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish. Qon ketishi. Qon ketishining kelib chiqishiga qarab turlari. Qon oqishini to‘xtatish

vaqtinchalik va uzil-kesil usullari. Birinchi yordam va hamshiralik parvarishi. Jarohat. Jarohat turlari. Jarohatlanganda birinchi yordam. Sinishlarda transport immobilizatsiyasi. Suyak sinishi, turlari, birinchi yordam ko'rsatish. Shok va koma turlari va kelib chiqish sabablari. Anafilaktik shokda, Kvinke shishida, eshakemi va komada birinchi yordam tadbirlari o'tkazish. Oziq-ovqat mahsulotlari, qo'ziqorin va o'simliklardan, alkogol va kimyoviy vositalardan zaharlanishlarning klinik belgilari. Hashoratlar (ari, qovoq ari, chayon, ilon) chaqishida klinik belgilari, shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish. Epidemiologik jarayon, infeksiyani tarqalishini oldini olish va tez tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish chora- tadbirlari.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uydavolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran videofilmlar.

Klinik amaliyko'nikmalarni mustahkamlash treningo'quvxonasimulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar,

4.3. Tavsiya etiladigan adabiyotlar

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining buyruq va me'yoriy hujjatlari.

4.3.2. Asosiy adabiyotlar:

1. V.YE. Avakov O.V. Churilova A.M. Sharipov "Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi" 2010g.

2. Y. Allayorov Y. Tojiboyev "Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari" Toshkent 2007 yil.

3. M.F. Ziyayeva Terapiya (Ichki kasalliklar) Toshkent-2014 y; Y.L. Arslonov, T.A. Nazarov, A.A. Bobomurodov Ichki kasalliklar Toshkent-2014 yil.

4. A.G. Gadayev, Karimov M.SH, Axmedov X.S Ichki kasalliklar propedevtikasi. Toshkent-2014 yil.

5. G.M. Semenov: "Sovremenniye xirurgiyechskiye instrumenti ". 2013 g.

6. B N Turakulov F.A. Qurbonov " Xirurgiyada hamshiralik parvarishi" 2019 yil.

7. M. Xamidova, Z. Boltayeva. "Ko'z kasalliklari "Toshkent 2016 yil.

8. M.S.Yusupova, G.Y.Nazarova, S.S. Shaimova: “Quloq, tomoq va burun kasalliklari”. Toshkent. “Talqin” nashriyoti. 2009 yil.
9. K.L.Shagulyamova. “Pediatriya”. Toshkent, «Ilm ziyo»-2015 god.
10. “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. 10.11.2020 yil.
11. M.F.Ziyayeva.Z.O.Rizayeva.“Bolalarda hamshiralik parvarishi”.
12. “Yuqumli kasalliklar epidemiologiya va parazitologiya” E.I.Musabayev, A.Q.Bayjanov. “ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” -Toshkent – 2007.
13. “Ebola isitmasi” H.B.Saparov, B.O‘.Rovshanov. Toshkent -2014
14. “Onalar hamda bolalarda xavf omillarini aniqlash bo‘yicha yo‘riqnomalar va beriladigan tavsiyalar”. Uslubiy ko‘rsatma. YUNISEF -2020y.
15. “Hamshiralik ishi protokollari” Patronaj / oilaviy hamshiralalar uchun uslubiy qo‘llanma.Toshkent 2010 y. 1-2 qism
16. “Reproduktiv salomatlik va bexatar onalik” Salomatlik -3”loyixasi o‘quv qo‘llanma.Toshkent 2012y.
17. “Ko‘krak suti bilan boqish” JSST dasturi bo‘yicha pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma. YUNISEF -2007y

4.3.3. Elektron ta‘lim resurslari

www.medi.ru,

www.medlinks.ru,

www.medscape.com,

www.medland.ru,

www.med-lib.ru,

www.ksmed.ru/pat/gynecology,

www.medsan.ru,

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar:

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta‘lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.